

LUG'ATLARDAGI DINIY ATAMA VA IBORALARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Farmonova Mashhura Bo'riqulovna

TerDU lingvistika: o'zbek tili 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada til xususiyatlaridan biri morfologik xususiyatni aniqlashda diniy atama va iboralarga murojaat qilingan. O'z navbatida morfologik xususiyatlarni "O'zbek tilining izohli lug'ati", J. Omonturdiyev va A. Omonturdiyevlarning "O'zbek tili diniy-ma'rifiy atamalarining izohli lug'ati" hamda Muxtorxon eshon Umarxo'jayevning "Diniy atama va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug'ati" nomli kitoblari asosida tahlilga tortilgan. Shuningdek, ba'zi diniy atamalarning o'ziga xos morfologik xususiyatlari, etimologiyasi, hozirgi kundagi ahamiyati, birlik va ko'plik shaklda qanday ma'noni ifodalashi aks etgan.*

Kalit so'zlar: *diniy atama va iboralar, diniy atama sifatidagi atoqli va turdosh otlar, sifat, son, fe'l so'z turkumlari, birlik shakl, diniy atama va iboralarning ko'plik shakli, -lar affiksi.*

Diniy atama va iboralarning morfologik tuzilishiga xos jihatlar xususida muayyan fikrga kelish uchun ularni o'zbek tili so'z turkumlar va grammatik kategoriyalari misolida tahlil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida shu tahlilni amalga oshirishga urinib ko'ramiz.

Diniy lug'atlarda berilgan so'zlarda ot so'z turkumi faol hisoblanadi. Ushbu so'z turkumiga kiradigan so'zlar semantikasi diniy atama va iboralarda rang-barangdir. Bu rang-barangliklar haqida ishimizning leksik birliklar tahlili qismida to'xtalganmiz. Shunga qaramasdan ot so'z turkumi doirasidagi elementlarning semantik-grammatik tahlili ularning alohida olingan lug'atlarning qiyosiy-morfologik xususiyatlari haqidagi qarashlarning asosli bo'lishiga ko'maklashadi.

Diniy atama va iboralar lug'atlari berilgan kitoblarda ot so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlarni dastlab ikki guruhga – atoqli va turdosh otlarga bo'lib o'rganish mumkin. Turdosh otlar ushbu lug'atlar tarkibida juda ko'p miqdorda bo'lsa-da, atoqli otlar ham o'z o'rnida sharhlab ketilgan. Diniy lug'atlarda faol qo'llanadigan va xoslangan payg'ambarlar, farishtalar, valiylar, anbiyolar, avliyolar, sahobalarning ismlari, Muhammad alayhissalom hayoti va faoliyati bilan bog'liq joylarni nomlari keltirilgan. Masalan, Muxtorxon eshon Umarxo'jayevning "Diniy atama va iboralarning qisqacha ommabop izohli lug'ati" nomli kitobida juda ko'p o'rinda atoqli ot nomi berilgan. Ularga misol tariqasida bir nechta keltiramiz (Allohning 99 ismi va payg'ambarimiz (s.a.v) Qur'onda keltirilgan 25 ta ismlaridan tashqari): **Ash'ariy**– Abul Hasan ibn Ismoil – ilohiyotchi olim. Mashhur sahoba Abu Muso Ash'ariy (r.a) ning avlodi hisoblanadi. Ilmi kalomning

asoschilaridan biri. **A'rof** – Qur'onda ta'riflangan Jannat bilan do'zax o'rtasidagi balandlik joy – devor nomi. Qur'oni karimning yettinchi surasi nomi. Makkada nozil bo'lgan, 206 oyatdan iborat. **Bibi Seshanba** – bid'at marosimlardan biri. **Bibliya** – (yun. "kitob", "o'ram") yahudiylik va xristianlikdinlari ta'limotiga ko'ra, Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o'zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir. **Jabroil** – islomda to'rt murakkab farishtalardan biri. Alloh amrlarini payg'ambarlarga yetkazib, vahiy keltiruvchi (xabar beruvchi), samoviy ofatlarni yer yuzida ijro qiluvchi farishta. **Zulfiqor, Zulfaqor** – (arab. - teshib o'tuvchi, o'tkir, xarob qiluvchi) Muhammad (s.a.v) ning Badr jangidan qo'lga kiritgan mashhur ikki uchli shamshirlar¹ va h.k.

O'zbek tilidagi sifat so'z turkumlar doirasida qo'llangan so'zlarni diniy atama va iboralar orasidan izlab ko'rganimizda bir nechta o'xshashliklarga duch keldik. Sifat yasovchi *-iy, -viy* kabi qo'shimchalar ko'proq diniy oqim nomlarini yasash uchun xizmat qilayotganini ko'rish mumkin. **Zaydiylar** – imomlikka (Rasululloh vafotlaridan keyin xalifalikka), islom dunyosiga rahbarlikka faqat Hazrati Ali munosib va haqli deguvchilar. **Zayd** so'zining ma'nosi esa *boshqalarning orqasida namoz o'qish mumkin emas*, - deya e'tiqod qiluvchilardir. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, qo'shimcha qo'shilganda sifat so'z turkumidagi so'zning ma'nosida o'zgarish bilinadi. Yana bir nechta misollar orqali tahlil qilamiz: **ba'daviy** – sahroyi ko'chmanchi, omi, ilmsiz arablar toifasiga nisbatan ishlatiladigan atama, **ba'd** – forscha – yomon, axloqsiz kishilarga nisbatdir. **Dahriy** – 1. Qadimiy, abadiy. 2. Olamning abadiy va azaliy deb biladigan va uning Alloh tarafidan yaratilganligiga ishonmaydigan kishi, dinsiz, xudosiz. 3. Allohning borligiga ishonmaslik². Dahr so'zining asl ma'nosi esa, arabcha zamon, asr; qismat, taqdir. Ko'chma ma'noda olam, dunyo, jahon. Do'zax – Jahannam so'zi bilan ma'nodoshlik hosil qilib ot so'z turkumini tashkil etsa, -iy sifat yasovch qo'shimcha qo'shilishi natijasida sifat so'z turkumiga o'tishlik holatini kuzatish mumkin bo'ladi. **Do'zaxiy** (fors+arab) – umrini gunoh, faxsh amallar bilan o'tkazgan, shar'iy ahkom va arkonlarni toptagan, Alloh va payg'ambarlarni rad etgan, imonga kelmay dunyodan o'tganlar³ Shaytoni La'in ana shundaylardan edi. *Duogo'y, jannatiy, xudojo'y, najotkor, noshar'iy, nomahram, nopok, otashgoh, riyokor, azaliy, muhasibiy, xattobiy, islomiy, diniy* kabi bir nechta sifat so'z turkumiga oid so'zlarni uchratishimiz va tahlil qilishimiz mumkin. Dinga oid bo'lgan lug'atlarda ularning miqdori juda ko'pchilikni tashkil

¹ Muxtorxon Eshon Umarxo'jayev. Diniy atama va iboralar. Qisqacha ommabop izohli lug'at. – Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti, 2016. 43-61-70-betlar.

² Omonturdiyev J, Omonturdiyev A. Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2014, 30-b.

³ J. Omonturdiyev va A. Omonturdiyevlarning O'zbek tili diniy-ma'rifiy atamalarining izohli lug'ati. –T., 2012. 33-b.

etadi. Ammo ba'zi bir so'zlarning ma'nosini diniy lug'atlarsiz ham tushunib olishingiz mumkin. Masalan, *g'assol to'qqiz yoshli bolani o'ligini ertalabdan toki peshin namoziga qadar yuvdi. Mayitning og'zidan qoni to'xtamas edi. Qachonki, bolaning bobosi haqiqatni aytmaguncha va bolaning onasi boladan kechirim so'ramaguncha bu holat davom etdi. Va nihoyat, peshin namozidan keyin bolani qabrga qo'yishdi. Bobosining aytishiga qaraganda, ona bolasini har doim "og'zingdan qoning kelsin" deb so'kar edi... Onalar bolalarni qarg'ashda tilingizga ehtiyot bo'ling!*⁴ Yuqoridagi *g'assol* so'zini izohli lug'atlarda ko'rmasdan ham matn tarkibida mayit yuvuvchi shaxs ekanligini tushunish mumkin, lekin ustozlarimiz, J. Omonturdiyev va A. Omonturdiyevlarning "O'zbek tili diniy-ma'rifiy atamalarining izohli lug'ati" da *g'assol* – arabcha, *g'asala* fe'lining "**yuvdi**" ma'nosi bilan yasalgan ot bo'lib, o'zbek tilida shar'iy qoida va tartiblarga rioya qilgan holda o'lik yuvadigan, g'usl qildiradigan (cho'miltiradigan) poklab kafanga o'rab beradigan kishi deya juda chiroyli tarzda berilgan. Albatta, diniy atama va iboralar lug'atini tuzmoqchi bo'lgan kishi arab tili fonetikasi, grammatikasi, etimologiyasi haqida ham xabardor bo'lishi lozim. Ana shundagina atamalarning morfologik xususiyati va qaysi so'z turkumiga oid ekanligini aniqlashimiz oson kechadi.

Diniy lug'atlarni tahlil qilishimiz natijasida son so'z turkumiga oid unchalik ko'p so'zni uchratmadik. Olmosh so'z turkumiga oid so'zlar esa faqat diniy so'zning izohi berilgan o'rinlardagina duch keldik. Son so'z turkumi bilan bog'liq so'zlar: **besht vaqt namoz** – [o'zb+ar+fors] bir kunda o'qiladigan bomdod, peshin, asr, shom va xufton namozlari; **besht farz** [o'zb+arab] – tavhid (iymon), namoz, ro'za, zakot, haj; **yetti sharif** [o'zb+arab] – musulmon xalqlarida e'zozlangan yeti qadrli aziz narsa yoki joy nomi: Kalomi sharif, Hadisi sharif, Buxoroyi sharif, Mozori sharif, Quddusi sharif, Shomi sharif, Ramazoni sharif; **o'n sakkiz ming olam** [o'zb+arab] – diniy ta'limotga ko'ra dunyo (koinot, galaktika) o'n sakkiz ming olamdan iborat (shulardan biri Yer olami). O'ziga xos hayot, yashash tarziga ega bo'lgan bu olamlar, ya'ni kasrat olami yoki olami sug'ro o'z Xalloqining qudratini namoyish etib, unga hamd-u sano aytib turadi. Intihoda foniylikka yuz tutib, ilohiy (boqiy) olamga singib ketadi⁵. Ayni paytda shunday bir diniy so'z mavjudki, uning ma'nosini bilganizdagina son so'z turkumi borligini anglaysiz. **Haftiyak** (forsche) – aynan yettining biri, yettidan bir; aslida Qur'onning yettidan bir qismi, ya'ni surai "An-nos" dan surai "Fath" gacha bo'lgan yetti porasi. "Abjad" dan keyin o'qiladigan, nisbatan Qur'onni o'qish va o'rganishni bir muncha osonlashtirish uchun alohida tayyorlangan, qisqa suralardan iborat bo'lgan, ixcham hajmdagi, boshlang'ich o'quv qo'llanmasiga o'xshash darslik kitobcha⁶. O'tmishda madrasalarda avval

⁴ Nuriddin domla ma'ruzalaridan

⁵ J. Omonturdiyev va A. Omonturdiyevlarning O'zbek tili diniy-ma'rifiy atamalarining izohli lug'ati. –T., 2012. 116-b.

⁶ O'sha manba. 128-b.

"Haftiyak" o'qitilgan. "Haftiyakni o'qimoq", "Haftiyakni tamomlamoq" iboralari shundan qolgan.

Fe'l so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlarni ham bir necha o'rinlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" da **uchmoq** fe'lining 13 xil ma'noda qo'llanishi keltirilgan, lekin ulardagi ma'nolarning birortasi ham diniy izohi berilgan *uchmoq* so'ziga o'xshamaydi. *Uchmoq (o'zb.) – jannat, kishi ruhi uchib boradigan va oxir-oqibatda qo'nim topadigan ilohiy makon*⁷. Yana bir **uchunmoq** fe'li berilganki, bu so'zning ma'nosi izohli lug'atda ham diniy lug'atda ham deyarli bir xil tarzda berilgan. Solishtiramiz: *uchunmoq (o'z. tili. izohli lug'atida) – etn. yomon kuchlar ta'sirida qo'rqish, cho'chish sababli tobi qochmoq, og'rимоq; uchunmoq (diniy lug'atlarda) – o'zb. biror narsadan yoki tasodifan ko'zga ko'ringan biror voqeadan qo'rqib, seskanib avzoi buzulmoq, holi razm solmoq; labiga uchuq chiqib, kasallanib qolmoq. Dam solmoq (arab+o'zb) – bemorni o'qimoq; muayyan miqdordagi duo va oyatlar o'qilgach, to'plangan nafas bilan kasalga jo'natmoq, dam solmoq, kuf-suf qilmoq. Xalq buni ushkurmoq ham deydi. Shu o'rinda yana bir fe'lli so'z birikmasiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. O'zbek tilining izohli lug'atida chilla (-da, -ga) o'tirmoq birkma shaklidagi so'z mavjud. Bu birkma *din.* stilistik belgisi ostida berilgan bo'lib, sufiy yoki muridning yakka o'zi alohida xona (hujra)da, odamlardan yashirinib, qirq kun davomida toat-ibodat qilishi deb berilgan bo'lsa, diniy-ma'rifiy atamalarining izohli lug'atida esa *chillada o'tirmoq* fe'li *chilla o'ltirmoq* shaklida berilib, forscha-o'zbekcha so'zlar qo'shilmasidan kelib chiqqanligi aytilgan va xuddi izohli lug'atda berilgan ta'rifdek izohlangan. Ommabop qisqacha izohli lug'atda esa ushbu fe'l shaklini umuman uchratmaysiz.*

Qo'l bermoq, qo'l bog'lamoq, qo'l olmoq kabi fe'l shakllari ham diniy lug'atda fe'lli birkma shaklida berilgan. *Qo'l bermoq (o'zb.) – 1) qo'lni qo'lga bermoq, ushlamoq, ko'rishmoq; 2) va'da-vohid, ahdu paymon qilmoq; 3) biror aziz avliyoga, pirga, eshonga e'tiqod qilmoq, tobelanmoq, ruhiy, ma'naviy madadga tayanmoq, murid (shogird) bo'lmoq. Qo'l bermoqning diniy istilohiy ma'nosi – keyingi uchinchi holat. Qo'l bog'lamoq (o'zb.) – namozda "Xolisan lillahi taolo Allohu akbar" dan keyin o'ng qo'lni chap qo'l ustiga (erkaklar kindik ustiga, ayollar ko'krak ustiga) qo'ymoq. Qo'l olmoq (o'zb.) – eskichalik qilish, kishilardan ins-jinslarni haydash usullarini o'rganish. Bundan tashqari, so'zlarning izohli lug'atida qo'l qo'ymoq, qo'li kalta, qo'li baland kelmoq, qo'li uzun, qo'ldan kelgancha, qo'l solib ko'rmoq, qo'l kelmoq, qo'l ko'tarmoq, qo'l siltamoq, qo'l urmoq (biror ishni boshlash), qo'l uchida ko'rmoq, qurmoq, qo'lga olmoq (asir olish yoki qattiqqo'llik qilish), qo'li ochiq, qo'li qichimoq (bezorilik qilish), qo'li bor kabi o'ndan ortiq izohlari keltirilgan.*

⁷ Omonturdiyev J, Omonturdiyev A. Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2014. 101-bet.

Ba'zi ot so'z turkumidagi so'zlar borki, ularning tub mohiyati fe'l so'z turkumida hosil bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Yuqorida g'assol so'zini *g'asala* fe'lidan kelib chiqqanligi keltirib o'tdik. Yana bir misol: *azon* arabcha "*azina*" fe'lining tinglamoq ma'nosi bilan bog'liq hosil qilingan ot bo'lib, *namozga chaqirmoq, xabar bermoq da'vat etmoq* degan ma'nolarni bildirsa ham, so'roq shaklini olganda ot so'z turkumi ekanligini anglash qiyin emas. *Al-Qur'on* atamasi arabcha "*qar'a*" fe'lining "o'qidi" ma'nosi bilan bog'liq hosil qilingan bo'lib, *o'qish, o'qimoq* demakdir. Bir asosiy atamamiz ***din*** istilohining o'zi ham aslida fe'l so'z turkumiga oid ekan. *Din* (arabcha) – asli "*itoat qild*" ma'nosini anglatuvchi "*dana*" fe'lining "*ilohiy kuchga sig'indl*" ma'nosi bilan hosil qilingan. Ya'ni ilohiy kuch va u bilan bog'liq shakllangan, uning ahkom va arkonlari aks etgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy qarashlar – mafkura⁸.

O'zbek tilida ko'plikni ifodalovchi asosiy morfologik ko'rsatkich hisoblanadigan *-lar* affiksining qo'llanishida alohidaliklar sezilmaydi. Ammo unga diaxron- sinxron planda yondashilganda ayrim stilistik nozikliklarni payqash mumkin. Bu xususiyatni ustozlarimizning "O'zbek tili diniy-ma'rifiy atamalarining izohli lug'ati" misolida ko'rib chiqamiz.

Shunday atamalar bor ekanki, ularning birlik yoki ko'plik ma'noda ekanligini bilsangiz, albatta, yangi ma'no hosil bo'lishiga amin bo'lasiz. Quyida shunday so'zlar bilan tanishamiz.

Avliyo atamasining birligi *valiy* – diniy martabali shaxs.

Avrod atamasining birligi *virid* – duolar. Payg'ambarimiz (s.a.v) ning doimo o'qib yuradigan duolari.

Aimma atamasining birligi *imom* – olim-u ulamolar.

Anbiyo atamasining birligi *nabiy* – payg'ambar demakdir.

Ankar ul-asvot atamasining birligi – eng yoqimsiz ovoz, kuy yoki qiroatni buzuvchi ovoz.

Arvo atamasining birligi – ruhlar.

Asri sodot atamasining birligi *sayid* – sayidlar, ya'ni Muhammad payg'ambar va uning avlodlari asri.

At-tahiyot atamasining birligi *tahiyat* – salom, duo, maqtash, tanishish, tabriklash, tiriklik, hayot berish, uchrashish kabi ma'nolar bilan bog'liq qo'llaniladi.

Vasl atamasining ko'pligi *vasliyat* – tasavvufiy ma'noda Allohning ko'rki, jamoli, yuzi.

Vojib atamasining ko'pligi *vojibot* – bajarilishi zarur, shart hisoblangan shar'iy hukm.

⁸ Omonturdiyev J, Omonturdiyev A. Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati. – Toshkent: "Mumtoz so'z",

Domulla atamasi (domla) – aslida *doyai mulla* (forsiy izofali birikma) shaklida bo'lib, keyinchalik *doyai* so'zidan – *ya* va izofa belgisi – *i* tushgan, "domulladan" ham *-ul* qismi qisqargan: morfologik soddalanish yuz berib, ya'ni leksema – domla shakllangan.

Jinon atamasining birligi *jannat* – jannatlar bog'i.

Malak atamasining ko'pligi *maloik* yoki *maloyika* – farishta, hurlar.

Mashoyix atamasining birligi *shayx* demakdir.

Maqom atamasining ko'pligi *maqomat* – manzil, makon, o'rin, daraja.

Mursal atamasining ko'pligi *mursalin* – elchi qilib yuborilgan, elchi, payg'ambar.

Musannaf atamasining ko'pligi *musannafot* – tanlangan hadis.

Mo'jiza atamasining ko'pligi *mo'jizot* – aql bovar qilmaydigan – aqliy dalillar asosida isbotlab bo'lmaydigan, g'ayri odatiy, yuz beradigan voqea-hodisalar.

Rukn atamasining ko'pligi *arkon* – arabcha rakana fe'lining "suyandi" ma'nosi bilan bog'liq yasalgan. Islom shariati asoslaridir.

Ruh atamasining ko'pligi *arvoh* – abadiy barhayot unsur bo'lib, faqat insonga inom etilgan.

Salot atamasining ko'pligi *salovat* – namoz.

Safiy atamasining ko'pligi *asfiyo* – pok, toza, tanlangan.

Safha atamasining ko'pligi *safahot* – sahifa, varaq, bet. Kitob nozil bo'lmagan payg'ambarlarga tushirilgan Alloh amrlari.

Suluk atamasining ko'pligi *sulukot* – sufiylik maktabi, bir g'oya atrofiga, chunonchi, Allohga yaqinlashish maqsadida birlashgan, jipslashgan, soliklar, jamoasi.

Sufiy atamasining ko'pligi *so'fiyon* – muazzin, namozxon, taqvodor.

Tilsim atamasining ko'pligi *tilsimot* – muayyan duo kuchi bilan sehrlab qo'yimoq.

Ubbod atamasining birligi *obid* – ibodat qiluvchilar, dindorlar.

Ulamo atamasining birligi *olim* – olimlar, bilimdonlar.

Unsur atamasining ko'pligi *anosir* – asosiy, moddiy asliya, element. Yana bir ko'plikdagi ma'nosi *unsiriyot* – unsurlar: o't, suv, havo tuproq. Inson ana shu to'rt muqaddas unsurdan yaratilgan.

Qavvol atamasining birligi *qavl* – chechanlik bilan uzoq so'zlovchi, so'zamol.

Qavsayn atamasining birligi *qavs* – istilohiy ma'nosi ikki qavs – ikki olam: dunyo bilan bog'liq olam orasi. Diniy manbalarda jabroil farishta ko'z ochib yumguncha qavsaynni bosib o'tadi, go'yo bu masofa ko'z bilan qosh orasidek.

Qurro atamasining birligi *qori* – qurro atamasio'zbek nutqida ko'pincha ma'no kuchaytirish maqsadida qoriyu-qurro shaklida qo'llaniladi.

G'azo atamasining ko'pligi *g'azovot* – diniy islom yo'lida olib borilgan musulmonlar jangi, urush, g'azoda o'lgan shahid, dushmani o'ldirganlar g'oziy deyiladi.

Hazrat atamasining ko'pligi *hazorat* – ko'proq payg'ambar, avliyo, valiyulloh kabi din peshvolari, ilohiy shaxslar nomiga qo'shib aytiladi.

Yana bir misol: arabcha **arsa** yoki **aras** so'ziga ko'plik, mavhumlik qo'shimchasi (*-t, -ot*) ni qo'shish orqali hosil qilingan **arosat aslida** real ma'noda maydonlar, sahiy, kengliklar demakdir. Biroq diniy ta'limotga jannat bilan jahannam o'rtasida yastanib yotgan, qiyomatda barcha insonlar to'planadigan, tarozida gunoh va savoblari teng kelib, na jannat, na do'zoxga borolmaydigan bandalarning abadiy qolib ketadigan joyi – cheksiz ilohiy maydon. **Arosat** leksemasining mana shu keying ma'nosi istilohiy ma'nodir. Arosatning bugungi nutqimizdagi ishlari yurishmay, na u yoqlik, na u yoqlik bo'la olmay, o'rtada sarson bo'lib qolmoq ma'nosi ko'chim bo'lib, diniy-istilohiy ma'no emas.

Qadimgi turk, arab tillarida qo'llanib kelingan *-t -ot* kabi qo'shimchalar hozirgi o'zbek tilidagi *-lar* affiksi bilan ma'nodoshlik hosil qilishini yuqoridagi misollar orqali bilib olsa bo'ladi. Bundan tashqari, *-yat, -(n) in, -(r) ir* kabi qo'shimchalar ham ko'plikni hosil qilish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 tomlik. – T., 2006.
2. Hasanov. B. Qur'oni karim so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsatkichli lug'ati. G'. G'ulom.: 1995.
3. Omonturdiyev J, Omonturdiyev A. Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2014.
4. Omonturdiyev J, Omonturdiyev A. O'zbek tili diniy-ma'rifiy atamalarining izohli lug'ati. – T., 2012.
5. Muxtorxon Eshon Umarxo'jayev. Diniy atama va iboralar. Qisqacha ommabop izohli lug'at. – Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti, 2016.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, "Tafsiri Hilol" –T., 2008. 6 jildlik.1-jild.